

Ancha olis zamonlar edi. Bosqinlari tala-tala avj olgan. Har tomon notinch. Olamda nima voqeа sodir bo'layotganidan bexabar el har turli mish-mishlarga intiq turardi. Tahlikali hayot edi.

Jom, Ayrитом va o'n bir daho qishloqlarida yaxshi oti bor bo'z yigitlar va baquvvat odamlarni baobro' xonadonga chorlab,

Sho'roga qarshi kurashishga da'vat qilishardi. Ulardan ham birovi ko'nadi va boshqasi esa rozi bo'lmasdi.

Muhtaram o'quvchi, hikoyamizning shu yerida bir oz chekinish qilsak. Chekinish shuki, kamina qo'hna dunyo, tarixiy shaxslar, joylar haqida materiallar to'play boshladim. Kunlarning birida Oqbosh bosmachi haqida ham ko'p iliq gaplarni eshitdim.

Xullas, Oqboshning taqdiri va tarixi meni o'ziga tortgandi...

\* \* \*

Shifoxonadaman. Oyog'imni operatsiya qilishgan. Yozda bemorxonaning palatasida yotishning o'zi bo'lmas ekan. Issiq azob beradi. Xonadagilar bilan uyoqdan-buyoqdan gurung qilamiz.

Qarindosh-urug', hamsaboqlar ko'rgali kelishadi. Do'xtiru hamshiralar emlashib ketishadi. Vaqt yetib, menga shifoxonadan javob berishadi. Ko'ch-ko'ronimni ko'tarib, musofir shaharda tog'amnikiga keldim. U yerda ertangi safarim uyga, qishloqqa qaytishga tayyoragarlik ko'ryapman. Safar jabdug'i tayyor. Tepamdag'i quyosh botib, tong otishi bilan men ham yo'lga otlanaman.

Kechki payt tog'am ishdan keldi. Osh pishirdik. Qozon boshidan tog'a-jiyan savol-javob qildik.

-Oyog'ing og'rimayaptimi?

-Yo'q.

-Ehtiyyot bo'l, og'ir ko'tarma. Qishloqqa qachon ketyapsan?

-Ertaga ertalab. Agar uydagilarga gap bo'lسا...

-Yo'q, hammaga salom deysan.

-Shu tog'a bir gap bor edi...

-Nima ekan u gap?

- Oqbosh bosmachi degan odam bo'lgan ekan. Shu odam meni qiziqtirib qoldi. Ayrитомдан ekan. O'rganib, biror narsa qilsam devdim. Shunga sizning maslahatingiz kerak edi.

- Katta masala-ku? Yoshlik qilasan hali. Mayli. Ayrитомда Ismoil Toshqulov degan odam bor. Bir paytlar dong'i ketgan rais bo'lgan. Buvang bilan oshno. Ana shu odamning oldiga borasan. Ko'p narsadan xabardor. Otam u kishini maqtardi. Menden salom aytasan-da, gurung qilib, so'rabsan...

Tog'a-jiyan ancha mahalgacha suhbatlashdik.

Olam jahon nasihatlar bilan uyga keldim. Hafta-o'n kun jarohatlar bilan ovora bo'ldim. Xudoga shukr, yara tezroq bitdi. Bemalol yuradigan bo'ldim.

Yana Oqbosh bosmachining tarixini izlay boshladim. Bu borada sinfdoshim Eldorga gap ochdim. U "xohlasang birga u yerga boramiz. Ayrитомда qarindoshlarim bor," - dedi. So'ng u bilan mashinada yo'lga tushdik. Ayrитомга kiraverishda odam gavjum joyda to'xtadik. Mashinadan tushib, ular bilan ko'rishdik. Maqsad muddaomizni bayon etdik.

Ulardan biri ichkariga kirib ketdi-da, "sizlarni kolxozi idorasining oldida kajavali mototsiklda Bozorboy aka degan odam kutib turibdi. Tez boringlar, ana shu kishi sizlar izlayotgan odamni yaxshi biladi," deya yo'l ko'rsatdi.

Sherigim bilan kajavali mototsiklni qidirib kelaverdik. Biroz yurganimizdan so'ng xo'jalik idorasining oldida barvasta odam aytilgan ulovning yonida turganicha qo'lini bizga sermadи. To'xtadik. Ko'rishdik. U kishi "mening ortimdan yuraveringlar," deya mototsikliga mindi. Tepalikka chiqdik. U kishi bizlarga uyini, og'ilxona, tomorqasi-yu boshqa amlokini ko'rsatardi. So'ng pastga tushdik. Bozorboy akaning bolalari qo'limizga suv qo'yib, sochiq tutishdi.

Mehmonxonaga yo'l boshladi. O'tirdik. Dasturxon yozildi. Bir pastda dasturxon yegulikka, uy esa odamga to'ldi. Gapning rosti, uy egasi mezon Bozorboy aka xavotirda edi. Men bilan Eldorni mezbonlar savolga ko'mib tashladi.

"Kimsizlar?" "Jomning qaeridan, kimlardan bo'lasizlar?" "Jomning bozorida molning narxi qanday? Tovuqniki-chi? Ot-chi! Ot?"

"Ayrитомning kuchuklari yomon. Bu yerda ham bezori bolalar ko'payib ketgan. Tunov kuni molo'g'rilarini yigitlar tutib olib rosa urishibdi."

Uydagilar bizdan gumonsirar edi. Negaki, ikkovimiz ham yosh. Tagimizda esa mashina. Salkam bir asrdan ziyod tarixni titkilash uchun bir eldan boshqa elga borganmiz. Buning ustiga bizni qiziqtirgan odam dongdor mexanizator yoki zarbdor mehnatkash emas, balki Oqbosh bosmachi edi.

Turgan gapki, Oqbosh bosmachining tarixini bilmоqchi bo'lgan bu ikki jinqarcha mezbonlarni hadiksiratib qo'ygandi. Shu mahalda davraga o'rta bo'yli, ko'zlarini tik qaraydigan, qoruvli bir mo'ysafed kirib keladi. U kishini davra ahli darrov to'rga o'tkazdi. Hamma yuziga fotiha tortdi. Bir-birimiz bilan qaytadan so'rashdik. Mo'ysafed bizlarni savolga tutdi:

-Qaerdansizlar, bolalarim?

-Jomdanmiz.

-Kimlardansizlar?

Birinchi bo'lib Eldor, keyin men ota-bobolarimizni aytamiz. Qariya jim eshitib o'tirdi. U uy egasiga qarab, "Bozorboy, tashvish qilib o'tirma. Bular menin mehmonim ekan. Men bularning bobolarining ko'p tuzini yeganman. Qani, dasturxonga omin. Hamma bizning uyga. Ketdik, qani turinglar," deya ortidan bir uy odamni ergashtirib jo'nadi.

Hammamiz hayron. Qariya uyiga kelganida yana bolalariga amr qildi:

-Temur bolam, Jomdag'i jo'ramning nevaralari kelibdi. Oyog'inining tagiga jonliq so'y. Uyni tayyorlanglar.

Qo'chqor so'yildi. Gurung orasida hammasi ayon bo'lди. Bizlarni kutib olgan Bozorboy aka Oqbosh bosmachining nevarasi ekan.

Qariya esa bir paytlar Ayrитом ya'ni Fayzulla Xo'jaev xo'jaligida raislik qilgan Ismoil Toshqulov bo'lib chiqdi. Buning ustiga u kishi Oqboshning singlisini olgan ham ekan. Qariyaga tog'amdan salom aytdim. Ziyofat maromiga yetsa ham gurung tugay demasdi. Gurungning o'zanini Oqbosh bosmachiga buramiz. Ismoil Toshqulov ko'zlarini olislarga qadaganicha, chuqr xo'rsinib, hikoyasini boshlaydi.

"Oqboshning otasi-bobosi elning o'qimishli, kayvoni, old odamlaridan edi. Birov ularning oldini kesib o'tolmasdi.

Kambag'alparvar, yetim-esirning boshini silaydigan, raiyatparvar ro'zg'or edi.

Ular Ayrитом elining boy odamlaridan biri hisoblanardi. Oqbosh Buxorodagi Mir-arab madrasasida qanchadir vaqt ta'lim ham oladi.

Unda dini iymon bor edi.

This is not registered version pf TotalDocConverter  
Nihayat bu surʼatda qoʼsiz boʻlib olib qoladi.

Shoʼro hukumati tuziladi. Qizil askarlar miltiqlarini osib olib odamlarni qoʼrqtardi. Koʼziga chiroyli koʼringan anjomlarni soʼroqsiz istifoda qila boshlaydi.

Elning martabali odamlarini chorlab, anjumanlar oʼtkazib, shoʼroga daʼvat qilardi. Nenidir vaʼda qilardi. Sarpo-suruq inʼom qilardi. El ikkiga boʼlinadi. Biri shoʼroga xizmat qiladigan, boshqasi esa kimning etagidan tutishini bilmaydigan toifa edi. Mana shu toifa shoʼroga qarshi edi. Boshda ular shoʼroning qilayotgan ishlardan ich-ichidan nafratlanardi. Oxiri hammasi qoʼliga qurol oladi. Ular Oqboshning atrofida jipsplashadi. U boshda qoʼshni qishloq va hatto keyinchalik Turkiston, Buxoro, Nurota, Shahrisabz, Denov va Fargʼonadek joylar bilan aloqa qila boshladi.

U tilga tushdi. Tevarak-atrofda Oqbosh mashhur boʼldi. Unga yon atroflardagi gʼururli yigitlar kelib qoʼshila boshladi. Bu irmoqlar oxiri xuddiki daryodek boʼldi. Shoʼroning zabitlari ham ulardan choʼchiy boshladi. Oqboshni oʼzlariga ogʼdirish uchun koʼp urinishdi. Barisi befoyda ketdi. Oqbosh ularning na mansabiga, na oltinu olmoslariga koʼndi...

Uning askarları Nurota, Choʼnqaymish, Shahrisabz togʼlarida qoʼnim topdi.

Shoʼroning askarları kechasi besar yurgan odamlarni soʼroqsiz kolxozning otxonasiga qamab qoʼyardi. Ularga azob berardi. Ust-boshini yechib olib, uyiga haydab yuborardi. Odamlarning uyiga ham daxl qila boshladi.

Oqbosh ularga qarshi kurashadi. Shoʼroning koʼp askarlarini ayovsiz qirib tashladi. Buni kutmagan shoʼro garang boʼlib qoladi. Kengashib Oqbosh va uning navkarlarining boshini garovga qoʼyishdi.

Odamlarning qoʼy-mol, ot-eshagini oʼzlari oʼgʼirlab, Oqboshning odamlari oʼgʼirlagan, deya gap tarqatadi. Uning navkarlarini ich-ichidan boʼlmoqqa shaylanishdi. Shoʼroning urinishlari bekorga ketmadi. Kechikibroq boʼlsa-da, oʼzining natijasini bera boshladi. Choʼnqaymish togʼlarida yurgan, Oqboshning ishonchli vakili Miraliga qishloq shoʼrosining kotibligini taklif qilgan ekan. U darrov beshta qipchoqni oʼldirib, navkarlar orasiga nizo solib, oʼzi kotiblik martabasiga erishdi.

Shunday qilib Oqboshga sotqinlik qiladiganlarning soni koʼpayib boraverdi. Odamzot xom sut emgan banda deb bekorga aytmas ekanda. Shunday kunlarning birida Oqbosh Nurota tevaragidagi Xatirchidan bir Barchin degan arab xotinga uylanadi. Arab xotin undan Rajab degan bola tugʼadi. Shoʼrolar Oqboshning arab xotinini ham ishga solishadi. Ular Barchinga bir xurjun taqinchoqni shoʼrolar nomidan inʼom qilishadi. Evaziga esa bu xotin erini tutib berishi kerak edi. Arab xotin rozi boʼlmaydi.

Ular yana bir xurjun taqinchoq eltganlaridan soʼng Barchin rozi boʼladi.

Oqbosh uyiga koʼngli gʼash boʼlib keladi. Barchin esa unga girgitton boʼlib xizmat qiladi. Oʼgʼli Rajab otasiga onasining taqinchoqlarini koʼrsatadi. Oqbosh xotinini oʼlasi qilib uradi.

Yelkasiga chakmonini iladi-da, otiga minib navkarları bilan Shahrisabzga keladi.

Bu yerda ham xiyonat hidi sezildi. Omon degan navkari shoʼro tomonga hech gap-soʼzsiz oʼtib ketadi. Omon onasi bilan qishloqma-qishloq yurib xotin-xalaj orasida ozod zamon haqida soʼzlab, paranjilarni olovda yoqishadi.

Shoʼro Omonga emas, balki onasiga mansab beradi...

Oqbosh Shahrisabzda ham koʼp turmaydi. Bu yoqda shoʼro hukumati ham kuchaya boshlagan. Ularning quro-yarogʼi ham zoʼr edi. Toʼp-zambarak bilan togʼu toshlarni talqon qilardi. Qolgan joyda esa fitna bilan sotqinu xoinlarning koʼmagida ildamlay boshladi. Shoʼroning qoʼli baland kela boshlagandi.

Oqboshning dasti kaltalik qilayotganini oʼzi ham atrofdagilar ham sekin ilgʼay boshlashdi. Shahrisabz, Jom togʼlarida shoʼro askarları bilan soʼngi bor kurashdi. Ularga qiron keltirdi.

Tiramohning oxirlarida Oqbosh navkarlarini, sardorlarini yigʼadi. Katta va quyuq ziyofat beradi. Davradagilarning hammasiga tashakkur aytadi.B "Xizmatingizga rozi boʼlinglar. Mendan yaxshi-yomon gap oʼgan boʼlsa avf etgaysizlar. Hammangizdan roziman. Shu yerda tarqalamiz," deya Oqbosh yigitlari bilan koʼngli oʼksib, hatto yigʼlab, uzoq xayrlashadi.

Shundan keyin Oqbosh yonida eng sodiq beshta yigit bilan Turkistonga ketadi. Shoʼro bilan talashmaydi. U yerda tinch-totuv yashaydi. Chimkentlik bir oʼzbek ayolga uylanadi. Undan bola-chaqa orttiradi.

Turkistonga anovi Barchin degan arab xotin chaquv yuboradi. Keyin Oqbosh bir kechada koʼch-koʼronini olib Afgʼonistonga oʼtib ketadi. Atrofdagi yigitlarini ham olib ketadi. Keyinchalik Oqbosh Turkiyaga, undan soʼng Olmoniyaga kelib yashaydi.

U kishi shu ketganidan keyin Ayritomga qaytib kelmaydi. Ancha yillardan soʼng Bozorboyni ham olmonlar yurtiga chaqirishadi. Bu bola u yerga borib bobosining qazo qilganini biladi. U yerdagi oʼgay birodarlar bilan tanishadi, diydorlashadi.

Oqboshning Istat degan oʼgʼli xajiga borib kelgan ekan, u kishi Bozorboy ketar chogʼida unga bir xaltani tutqazibdi. Bozorboy olmayman bu nima oʼzi, deb soʼrabdi. Istat esa, uka, bu otamning qabridan olingan tuproq shuni olib borib Ayritomdagı bobolarimizning yoniga koʼming, debdi.

Bozorboy tuproqni opkelib, jonliq suyib, qabristonda ismi rasmini qildik.

Oqboshning qabrini tavof qiluvchilar koʼpayib ketdi. Xachirchidagi Barchin degan xotini ham shu yerda yashadi. U oʼlganida Oqboshning qabri yoniga koʼmdik. Zangʼar, shunday nasihat qilgan ekan.

Keyingi davrlarda Oqboshni maqtovchilar koʼpayib ketdi. Uni bosmachi deb atash ham urfdan qoldi.

Yaqinda maktab, kecha esa mana shu koʼchani ham Oqboshning nomi bilan atashibdi... Ajib zamonlar ekanda..."

Shu bilan Ismoil Toshqulovning Oqbosh haqidagi hikoyasi tugaydi.

Bizlar Ayritomlik mezbonlar bilan xayrlashib, tun qorongʼusida uyga qaytamiz.

Birni koʼrib fikr qil, birni koʼrib shukr...